



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-oktabr

571-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyat hokimining 2024 yil 11 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-151-son Farmoni ijrosi haqida”gi 472-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-151-son Farmoni hamda Namangan viloyat hokimining 2024 yil 11 oktyabrdagi maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyat hokimining 2024 yil 11 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-151-son Farmoni ijrosi haqida”gi 472-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabrdagi PF-151-sonli Farmoni bilan:

Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligi negizida Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligini (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tashkil etish;

Agentlik huzurida Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Agrosanoatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasini tashkil etish ma‘qullanganligi;

Quyidagilar: Agentlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda 2024-2025-yillarda tog‘oldi va qir-adirlik, iqtisodiy samarasiz hamda eskirgan bog‘ va tokzorlar o‘rnida yangidan sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzorlar barpo etishning maqsadli ko‘rsatkichlari ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

2024-yil 1-oktabrdan boshlab respublikada sanoatlashgan yangi intensiv bog‘ va tokzorlarni barpo etish hamda moliyalashtirish bo‘yicha tizim joriy etilganligi;

Belgilanishicha, bog‘lar va issiqxonalardan belgilangan tartib va shartlar asosida foydalanish holati Agentlik tomonidan doimiy monitoring qilib borilishi;

2024-yil 1-oktabrdan boshlab respublikada yangi bog‘larni barpo etishni Jamg‘arma kredit resurslari hisobidan tijorat banklari orqali moliyalashtirish tartibi joriy etilganligi;

Agentlikka yangi bog‘larni barpo etish bo‘yicha loyiha tashkilotlari, mahalliy va xorijiy maslahatchilarni (ekspertlarni) qonunchilikda belgilangan tartibda jalb qilishga ruxsat berilganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 1-yanvardan boshlab iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosilli bog‘ va tokzorlarni yaroqsiz deb topish, ular o‘rnida intensiv bog‘ va tokzor barpo etish yoki haydaladigan yerlar toifasiga o‘tkazish to‘g‘risida xulosani qabul qiluvchi tuman (shahar) komissiyasi tomonidan iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosilli bog‘ va tokzorlar deb xulosa berilgan sanadan boshlab 12 oy davomida yangi bog‘ yoki tokzorlar barpo etilmagan taqdirda ushbu bog‘ va tokzorlar joylashgan maydonlar uchun yer solig‘ini 3 baravarga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Bunda, Agentlik iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan deb topilgan bog‘lar va tokzorlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning soliq to‘lovchilar kesimida Soliq qo‘mitasiga tegishli axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali taqdim etib borilishini ta‘minlashi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab tashabbuskorlar yangi bog‘larni barpo etishda o‘z ehtiyojlari uchun xorijiy davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) 3-ilovada nazarda tutilgan ro‘yxatdagi payvandtagli mevali ko‘chatlar va payvandtaglar, payvandustlari, onalik materiallari va texnikalarni import qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona bojlaridan ozod etilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

### 3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyatda 2024-2025-yillarda iqtisodiy samarasiz hamda eskirgan bog‘ va tokzorlar o‘rnida yangidan sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzorlar barpo etishning maqsadli ko‘rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A. Xakimov), Agentlikning tuman bo‘limi bilan birgalikda muntazam ravishda yangidan tashkil etiladigan sanoatlashgan yangi intensiv bog‘ va tokzorlar hamda issiqxonalarni barpo etish maqsadida zaxiradagi yer uchastkalari hamda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va qishloq xo‘jaligi korxonalariga tegishli past hosilli paxta va g‘alla yer maydonlari, shuningdek, samarasiz hamda eskirgan bog‘- tokzorlar ro‘yxatini shakllantirib borsin.

5. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jo‘raboev), Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-151-son Farmoni talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**